Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, Turdimuratova Aziza Alisherovna	
AGRAR ISHLAB CHIQUARISHNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA "QISHLOQ XO'JALIGI-4.0" VA "AQLLI QISHLOQ XO'JALIGI" KONSEPSIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH.....	851
Yusupov Muxiddin Soatovich	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARINI MOLIYALASHTIRISH MANBALARINI GURUHLASH VA BAHOLASH.....	860
Davlyatov Bekzodjon Aslanxojayevich	
TA'LIM TIZIMINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHDA XORIY TAJRIBASINING AHAMIYATI	864
Sobirov Shaxzod Ozod o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI SOLIQQA TORTISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	868
Karimov Mirolimjon Karimjon o'g'li	
ПРОБЛЕМЫ МЕЖДУНАРОДНОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО СОТРУДНИЧЕСТВА В ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ УЗБЕКИСТАНА.....	875
Аликулов С. А., Хамракулова О. Д.	
YASHIL IQTISODIYOTDA KORXONALAR BOSHQARUV MEKANIZMLARINING EVOLYUTSIYASI: KONSEPTUAL TAHLIL.....	880
Nabiev Bobur Muhammadqosim o'g'li	
SUD-HUQUQ TIZIMINI YANADA DEMOKRATLASHTIRISH: JORIY HOLATI, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR.....	884
Majidov Muslimbek Maxamadjon o'g'li	



SUD-HUQUQ TIZIMINI YANADA DEMOKRATLASHTIRISH: JORIY HOLATI, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR

Majidov Muslimbek Maxamadjon o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti 1-bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada sud hokimiyatining o'ziga xos jihatlari hamda sudyalar mustaqilligini kafolatlash masalalari O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligi va xalqaro huquqiy standartlar asosida tahliliy o'rganilgan. Shuningdek, sud tizimida demokratik tamoyillarni kuchaytirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga qaratilgan yondashuvlar baholangan. Maqola xulosasida mavzu yuzasidan nazariy jihatdan asoslangan xulosalar hamda amaliy ahamiyatga ega taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kaliy so'zlar: sud hokimiyati, sudya mustaqilligi, odil sudlov, sud tizimi, huquqiy kafolatlar, demokratik islohotlar, inson huquqlari.

Abstract. This article provides an analytical study of the distinctive features of the judiciary and issues related to guaranteeing judicial independence, based on the national legislation of the Republic of Uzbekistan and international legal standards. It also assesses approaches aimed at strengthening democratic principles within the judicial system and enhancing the effectiveness of the administration of justice. The article presents theoretically grounded conclusions, as well as practical recommendations and proposals for further improvement.

Key words: judiciary, judicial independence, justice, judicial system, legal guarantees, democratic reforms, human rights.

Аннотация. В данной статье на основе национального законодательства Республики Узбекистан и международных правовых стандартов проведён аналитический обзор особенностей судебной власти и вопросов обеспечения независимости судей. Также оценены подходы, направленные на укрепление демократических принципов в судебной системе и повышение эффективности отправления правосудия. По итогам исследования сформулированы теоретически обоснованные выводы, а также разработаны практические предложения и рекомендации по совершенствованию данной сферы.

Ключевые слова: судебная власть, независимость судей, правосудие, судебная система, правовые гарантии, демократические реформы, права человека.

KIRISH

Mamlakatda sud hokimiyatining to'laqonli mustaqilligini ta'minlash, inson huquq va erkinliklarini samarali himoya qilish hamda odil sudlovga erishish darajasini yuksaltirish davlat siyosatining strategik maqsadlaridan biri hisoblanadi. Bu vazifalar sud-huquq tizimini modernizatsiya qilish, uning shaffofligi va hisobdorligini oshirish hamda jamiyatning sud organlariga bo'lgan ishonchini mustahkamlash orqali hayotga tatbiq etilmoqda. O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab bergan Harakatlar strategiyasida sud hokimiyati mustaqilligini institutsional jihatdan mustahkamlash, sud faoliyatini demokratik tamoyillar asosida takomillashtirish, shaxs huquqlarini ishonchli huquqiy muhofaza qilish mexanizmlarini kengaytirish hamda qonuniyligni ta'minlash dolzarb islohot yo'nalishlari sifatida belgilab berildi. Ushbu maqsadlarning strategik ahamiyati shundaki, sud hokimiyati davlat boshqaruv tizimida alohida va mustaqil institut sifatida namoyon bo'lib, jamiyatda adolat tamoyilini qaror toptirishda hal qiluvchi vazifani bajaradi.

Odil sudlov davlatning huquqni qo'llashga qaratilgan alohida faoliyat shakli bo'lib, vakolatli sud organlari tomonidan huquq normalari buzilishi natijasida kelib chiqadigan nizo va ziddiyatlarni qonun doirasida ko'rib chiqish hamda ularga xolis va qonuniy yechim berish jarayonini anglatadi. Demokratik huquqiy davlatda qonun ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi oliy mezon sifatida amal qiladi hamda davlat organlari, jamoat birlashmalari va fuqarolar o'rtasida vujudga keladigan huquqiy munosabatlarning qonuniy chegarasini belgilaydi.

Mazkur huquqiy munosabatlarning Konstitutsiya va qonun talablariga muvofiq tarzda shakllanishi, amalda ta'minlanishi va zarurat tug'ilganda huquqiy tartibda hal etilishi aynan sud hokimiyati zimmasiga yuklatilgan



konstitutsiyaviy vazifadir. Shu bois, sud tizimining adolatli, mustaqil va samarali faoliyat yuritishi jamiyatda qonun ustuvorligi ta'minlanishining asosiy kafolati hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev o'zining Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida sud faoliyatining fundamental vazifasini belgilab, "sudlarning bosh maqsadi – jamiyatda adolatni qaror toptirish ekanligi, har bir sud hukmi va qarori qonuniy, asosli va adolat mezonlariga to'la javob berishi shartligi"ni alohida ta'kidlab o'tgan [1]. Ushbu yondashuv sud hokimiyatiga davlat tizimida yuklangan yuksak mas'uliyat va uning jamiyat taraqqiyotidagi hal qiluvchi ahamiyatini ifoda etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sud–huquq tizimini demokratlashtirish masalasi xalqaro ilmiy doiralarda keng o'rganilgan bo'lib, demokratik institutlar samaradorligi, konstitutsiyaviy nazoratning mustahkamlanishi va sud hokimiyatining mustaqilligi jamiyatning huquqiy taraqqiyotining asosiy omillari sifatida e'tirof etiladi. Robert A. Dahl demokratik boshqaruvning barqaror rivojlanishi uchun mustaqil sud tizimi hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ta'kidlab, sud hokimiyatini fuqarolarning asosiy erkinliklarini himoya qiluvchi mustahkam mexanizm sifatida baholaydi. Tom Ginsburg konstitutsiyaviy nazoratning jamiyatdagi huquqiy muvozanatni ta'minlashda o'ziga xos kafolat funksiyasini bajarishini, sud institutlari faoliyatining mustahkamlanishi esa davlat boshqaruvida shaffoflik va hisobdorlikni kuchaytirishini ilmiy asoslab bergan.

Mark Tushnet sud hokimiyati faoliyatida huquqiy islohotlarning demokratik qadriyatlarni mustahkamlashdagi o'rnini yoritib, sudlar tomonidan qonun ustuvorligining izchil ta'minlanishi fuqarolarning davlat organlariga bo'lgan ishonchini sezilarli oshirishini ta'kidlaydi. Cheryl Saunders esa konstitutsiyaviy tizimda fuqarolar huquqlarining kafolatlanishi, sud jarayonlarida protsessual adolatning kuchayishi va sud qarorlarining ochiqligi demokratik jamiyatlar uchun universal mezon ekanini ilmiy dalillar bilan ko'rsatadi.

Hans Kelsen tomonidan ishlab chiqilgan normativ yondashuv sud hokimiyatining demokratik tizimdagi o'rnini aniq belgilab, huquq tizimining izchilligi va qonunlarning ierarxik boshqaruviga asoslangan. Ushbu nazariy model ko'plab davlatlarda sud huquqiy islohotlarining asosiy metodologik poydevorini tashkil etgan. Ronald Dworkin esa sud qarorlarining axloqiy-etik asoslari va konstitutsiyaviy tamoyillarning ustuvorligi huquqiy tizimni yanada insonparvar, adolatli va demokratik qilishga xizmat qilishini asoslab beradi.

Ma'muriy adolat va sud jarayonlari shaffofligini o'rganishda Martin Shapiro va Alec Stone Sweet tadqiqotlari alohida o'rin tutadi. Ularning fikricha, sud tizimida protsessual aniqlik, sud organlarining institutsional mustahkamligi va huquqiy javobgarlikning oshirilishi demokratik tamoyillarning real hayotga tatbiq etilishida asosiy mezon hisoblanadi. OECD va World Justice Project tomonidan e'lon qilinadigan sud mustaqilligi va huquq ustuvorligi indeksleri esa mamlakatlarning demokratik rivojlanish jarayonida sud tizimini modernizatsiya qilish borasida qo'lga kiritgan yutuqlarini baholashda muhim xalqaro manba bo'lib xizmat qilmoqda.

Umuman olganda, ilmiy manbalar sud–huquq tizimining demokratlashuvi jamiyatda ochiqlik, adolat va ishonch muhitini mustahkamlashga, fuqarolarning huquqiy madaniyatini yuksaltirishga hamda davlat boshqaruvining samaradorligini oshirishga bevosita ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi. Ilg'or tadqiqotlarda keltirilgan nazariy qarashlar va empirik tahlillar demokratik sud tizimini shakllantirishning universal tamoyillari va samarali mexanizmlarini yoritib, ushbu yo'nalishda olib borilayotgan islohotlarning ijobiy natijalarini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ma'lumotlar xalqaro huquqiy indekslar, sud tizimi samaradorligi bo'yicha ochiq statistik bazalar va ilmiy nashrlardan olingan. Analitik yondashuv asosida ularning mazmuni qiyosiy-huquqiy tahlil qilindi, konstitutsiyaviy nazorat va sud mustaqilligi bo'yicha indikatorlar o'zaro solishtirildi hamda demokratlashtirish jarayonining ijobiy dinamikasini aniqlash uchun normativ tahlil qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Sud hokimiyatining institutsional mustaqilligi bir qator huquqiy va tashkiliy belgilar orqali namoyon bo'ladi. Jumladan, sud hokimiyati maxsus vakolatli davlat organlari – sudlar tomonidan amalga oshiriladi va sud organlarining yig'indisi davlatdagi yagona sud tizimini shakllantiradi. Konstitutsiyaga muvofiq, sud hokimiyati fuqaroviy, jinoiy, iqtisodiy va ma'muriy sud ishlarini ko'rib chiqish vakolati orqali amalga oshiriladi. Odil sudlov qat'iy belgilangan protsessual qoidalar va huquqiy tartibotlar asosida yuritiladi, bu esa sud faoliyatining qonuniy va shaffof bo'lishini kafolatlaydi. Sud organlari tomonidan qabul qilingan qarorlar boshqa davlat hokimiyati institutlari tomonidan qayta ko'rib chiqilishi yoki bekor qilinishi mumkin emas, bu uning tashqi ta'sirlardan xoli va mustaqilligining asosiy kafolatidir.

Sud hokimiyati faoliyatining boshqa davlat institutlaridan farqli va betakror jihatlari quyidagilarda yorqin namoyon bo'ladi. Sud odilligini amalga oshirish davlat nomidan yuritiladi, bu sud qarorlarining davlat irodasi



ifodasi ekanini anglatadi. Sudlov maxsus konstitutsiyaviy tartibda shakllangan va vakolat berilgan organlar tomonidan amalga oshiriladi, jumladan hukm va qarorlarning “O‘zbekiston Respublikasi nomidan” e‘lon qilinishi uning davlat hokimiyati ifodasi ekanini tasdiqlaydi. Sudyalar o‘z faoliyatida faqat qonunga tayanadi, ishlarni ko‘rib chiqish qat’iy protsessual normativ tartib asosida amalga oshiriladi, bu qonun ustuvorligining amaliy ifodasidir. Sud hokimiyati ijro va qonun chiqaruvchi hokimiyat tarmoqlaridan institutsional, funksional va tashkiliy jihatdan mustaqildir. Davlat organlari orasida faqat sud adolat qaror toptirish va majburlov choralarini davlat nomidan qo‘llash vakolatiga ega bo‘lgan yagona organ hisoblanadi, ya’ni sud vakolatlari boshqa tuzilmalar tomonidan amalga oshirilishi mumkin emas. Sud hokimiyatining qarorlari uzil-kesil xususiyatga ega bo‘lib, qonuniy kuchga kirgan sud hukmi yoki hal qiluv qarori barcha davlat organlari, tashkilotlar va shaxslar uchun so‘zsiz bajarilishi shart bo‘lgan majburiy hujjat hisoblanadi.

Shu tariqa, sud hokimiyatining mustaqilligi faqat huquqiy kafolat emas, balki odil sudlovni samarali ta‘minlash, fuqarolar ishonchini mustahkamlash va jamiyatda qonuniy tartibotni barqarorlashtirishning asosiy konstitutsiyaviy poydevoridir. O‘zbekiston Respublikasida sud hokimiyatining faoliyati ijtimoiy adolatni ta‘minlash, huquqiy tartibotni mustahkamlash, Konstitutsiya va qonun ustuvorligini amalda ta‘minlash hamda inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini muhofaza qilishga qaratilgan. Sud davlat hokimiyatining mustaqil tarmog‘i hisoblanadi va uning samarali faoliyati davlat va jamiyatning obro‘si bilan bevosita bog‘liqdir. Jumladan, sud organlari va sudyalarning qonunga rioya qilishi hamda qabul qilingan qarorlarning adolat mezonlariga mosligi davlatning qonuniylik va ijtimoiy ishonchini belgilaydi.

Sud hokimiyati va sudyalarning mustaqilligi odil sudlovning xolisligi va qonuniyligini ta‘minlovchi asosiy prinsiplardan biri sanaladi. Konstitutsiyaning 112-moddasi hamda “Sudlar to‘g‘risida”gi qonunning 4-moddasiga muvofiq, sudyalar o‘z faoliyatlarida faqat qonunga bo‘ysunadilar va davlat hamda jamiyatdan mustaqil ravishda ish olib boradilar. Shuningdek, sudyalar mustaqilligini ta‘minlashda ularning siyosiy partiyalarga yoki boshqa tashkilotlarga mansub bo‘lmasligi ham muhim kafolat hisoblanadi. Bu me‘yorlar sudyalar va sud organlarining adolatli va xolis sudlovni amalga oshirishini, qonun ustuvorligini ta‘minlashini va fuqarolarning huquqiy manfaatlarini samarali himoya qilishini kafolatlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta‘minlash uchun, birinchi navbatda, sudyalarni odil sudlovga ta’sir o‘tkazadigan omillardan himoya qilish kerak. Tergov va sud ishiga aralashish holatlarini aniqlash, buning uchun javobgarlikni kuchaytirish va jazo muqarrarligini ta‘minlash g‘oyat muhimdir.” Sudyalarning mustaqilligi ularni qonunda belgilangan tartibda sudyalikka tayinlash va ozod qilish, ularning daxlsizligini ta‘minlash, odil sudlovni amalga oshirishdagi qat’iy taomillarni qo‘llash, qaror chiqarish chog‘ida sudyalar maslahatining sir tutilishi, sudga hurmatsizlik yoki ishlarni hal qilishga aralashganlik uchun javobgarlik belgilanishi hamda sudyaga davlat tomonidan uning maqomiga mos moddiy va ijtimoiy ta‘minot berilishi orqali kafolatlanadi.

Sudyalarga nisbatan hurmatsizlik qilish yoki ularni mensimaslik kabi xatti-harakatlar qonun doirasida jazolanadi. O‘zbekiston Respublikasining 28.07.2021 yildagi “Sudlar to‘g‘risida”gi O‘RQ-703-son¹ Qonunning 69-moddasiga muvofiq, sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish faoliyatiga aralashishga yo‘l qo‘yilmaydi. Ushbu norma sudyalar faoliyatiga to‘sqinlik qilish yoki ularga ta’sir ko‘rsatish orqali g‘ayriqonuniy sud qarorlariga erishish holatlarida jinoiy javobgarlikni nazarda tutadi. Sudyalar va sud hokimiyati mustaqilligining yana bir muhim kafolati sudyalarning daxlsizligini ta‘minlashdir. Bu prinsip BMT Bosh Assambleyasining 1985-yil 13-dekabrda 40/146-sonli rezolyutsiyasida ma’qullangan “Sud organlari mustaqilligining asosiy prinsiplari” hujjatida, xususan 16-, 17- va 20-moddalarda o‘z ifodasini topgan. Ushbu me‘yorlar sudyalarning daxlsizligini mustahkamlaydi va sud organlari uchun konstitutsiyaviy asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, mustaqil sud instituti har bir shaxsning huquqi sanaladi va uning amalda ta‘minlanishi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 10-moddasi talablari bilan ham uyg‘un keladi. Bu sudyalar mustaqilligi va daxlsizligining xalqaro huquqiy asosini mustahkamlaydi hamda odil sudlovning samarali amalga oshirilishi uchun muhim kafolatdir.

O‘zbekiston Respublikasi sud tizimida zamonaviy talablarga mos ravishda iqtisodiy va ma’muriy sudlar joriy etildi. Shuningdek, sud mustaqilligini yanada mustahkamlash va sudyalar faoliyatini institutsional jihatdan tartibga solish maqsadida yangi organ – O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi tuzildi hamda uning vakolatlarini belgilashga qaratilgan alohida qonun qabul qilindi. Ushbu qonunga muvofiq, Kengash O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishgan holda harbiy sudlar, viloyatlar va Toshkent shahar sudlari sudyalarini, shuningdek tumanlararo, tuman va shahar sudlari raislari hamda sudyalarini mustaqil ravishda lavozimga tayinlaydi va lavozimidan ozod qiladi. Bu huquqiy mexanizm avval sudyalar tayinlanishida Prezidentning to‘liq vakolatli bo‘lgan amaliyotini institutsional tartibga solishga qaratilgan muhim islohotdir.

Sudyalar oliy kengashi sudyalar hamjamiyatining organi bo‘lib, sud hokimiyatining mustaqilligi konstitutsiyaviy prinsiplariga rioya qilinishi hamda odil sudlovning ta‘minlanishi uchun muassislik vazifasini

1 <https://lex.uz/docs/-5534923>



bajaradi. Kengashning tarkibi rais, rais o'rinbosari, a'zolari va kotibdan iborat bo'lib, umumiy hisobda 21 nafar kishini tashkil etadi. Unga sudyalari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar vakillari, fuqarolik jamiyati institutlari hamda huquq sohasida yuqori malakali mutaxassislar kiradi.

Sudyalari oliy kengashining asosiy vazifalari sudyalik lavozimlari uchun nomzodlarni tanlov asosida saralash, eng malakali va mas'uliyatli mutaxassislar orasidan sudyalarni tayinlash hamda rahbar sudyalik lavozimlariga tavsiyalar berish orqali sudyalari korpusini shakllantirish, sudyalarning daxlsizligi va odil sudlovni amalga oshirishga aralashishga yo'l qo'yimaslik uchun chora-tadbirlar ko'rish, sudyalarning kasbiy tayyorgarligini ta'minlash, malakasini oshirish, faoliyati samaradorligini baholash va ularni rag'batlantirishga qaratilgan tashabbuslarni ilgari surishni o'z ichiga oladi. Ushbu mexanizmlar Sudyalari oliy kengashini O'zbekiston sud tizimining mustaqilligini ta'minlovchi asosiy institutga aylantirib, odil sudlovning samarali va xolis amalga oshirilishini kafolatlaydi.

Sudlar jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish va yuksaltirishda muhim rol o'ynaydi. Har bir sud jarayoni nafaqat huquqiy, balki tarbiyaviy va ma'rifiy ahamiyatga ham ega bo'lib, fuqarolarni qonunlarga rioya qilish, xatolardan saboq olish va huquqiy mas'uliyatni anglashga undaydi. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli sud-huquq islohotlari doirasida Prezident ta'kidlaganidek, "Sudlarning tarbiyaviy rolini kuchaytirish, uning faoliyatida ochiqlik va oshkoralikni ta'minlash, sud qarorlarini qabul qilishda jamoatchilik fikrini inobatga olish muhim e'tirof etildi" [1, 10-b].

Huquqiy davlatchilikni mustahkamlash va odil sudlovni samarali amalga oshirish maqsadida sudyalarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ularda zarur kasbiy malaka va axloqiy fazilatlarni shakllantirish muhim vazifa hisoblanadi. Sudyalarda sudlovni amalga oshirishda qat'iyat va vazminlik, xotirjamlik va sovuqqonlik, boshqalarga nisbatan hurmat, ehtiyotkorlik va tavoze, ehtiros va jizzaga berilmaslik, vaziyatni tahlil qilishda sermulo hazalilik, sud jarayoni ishtirokchilariga nisbatan qo'pollik yoki do'q-po'pisa qilmaslik, adolatpeshalik va xalqparvarlik, jabrdiyda dardiga ehtiyotkorlik, hukm chiqarishda vijdon va ichki e'tiqodga tayangan qarorlar qabul qilish kabi sifatlar yuqori darajada bo'lishi zarur.

Fuqarolarning aybsizlik prezumpsiyasini sudlov jarayonida qat'iy ta'minlash sudyaning yuksak huquqiy madaniyati va chuqur axloqiylikka ega ekanligiga bevosita bog'liqdir. Shuningdek, sudlarning faoliyatidan xalq muntazam xabardor bo'lishi va odil sudlov haqida axborot olishi uchun tizimli choralar ko'rish muhim ahamiyatga ega. Bu maqsadda sudlar ommaviy axborot vositalari bilan samarali hamkorlik qilishlari, sud qarorlarining elektron ma'lumotlar bazasini yaratish va ularni tegishli veb-saytlar hamda internet tarmoqlarida joylashtirish orqali aholiga yetkazishlari zarur. Bu jarayon sudlarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan ta'minlashni yanada rivojlantirishni talab qiladi.

Fuqarolarning huquq va erkinliklarini, ayniqsa jinoiy tajovuzlardan himoya qilishning ishonchli kafolatlarini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-noyabrda "Sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-5268-son² Farmoni qabul qildi. Ushbu farmon qator muhim vazifalar va me'yorlarni belgiladi.

Qonun hujjatlari talablariga qat'iy va bevosita rioya qilish huquqni muhofaza qiluvchi organlar va sud organlari e'tiborining eng asosiy yo'nalishi hisoblanadi. Qonun normalarini aniq bajarmaslik yoki ulardan chetlashish, sabablardan qat'i nazar, qonuniylikni buzish sifatida baholanadi va qonun hujjatlari bilan belgilangan javobgarlikka sabab bo'ladi.

Protsessual qonunchilikni buzish, shu jumladan jinoyat protsessi ishtirokchilari yoki ularning yaqin qarindoshlariga nisbatan qiynoq, psixologik yoki jismoniy tazyiq ko'rsatish, shafqatsiz yoki g'ayriinsoniy muomala qo'llash, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining himoya huquqini, shuningdek tarjimon xizmatidan foydalanish huquqini buzish, mavjud dalillar bilan tasdiqlanmagan gumon, taxmin, mish-mish yoki tasdiqlanmagan ko'rsatuvlarni dalil sifatida qo'llash qonun bilan qat'iyan taqiqlanadi.

Shu bilan birga, farmonda sud-tergov faoliyatida innovatsion uslublardan foydalanish, dalillarning aloqadorligi, maqbulligi va ishonchliligi masalalarini yuritish hamda jinoyat-protsessual qonunchilik talablariga muvofiqlikni ta'minlashning ilg'or xorijiy tajribasini o'rganish va tahlil qilish tavsiya qilingan. Ushbu qadamlar fuqarolarning huquq va erkinliklarini samarali muhofaza qilish, sud va tergov organlarining odillik va shaffofligini ta'minlash hamda qonuniylikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shunday qilib, sud-huquq sohasidagi islohotlarni chuqurlashtirish va ularni yanada kengroq ko'lamda amalga oshirish jamiyatimizda mustaqil, adolatli sud hokimiyatini qaror toptirishga ko'maklashadi. Yuqorida bayon etilgan ijtimoiy-siyosiy, huquqiy va tashkiliy chora-tadbirlar jamiyatimizda sudning yuksak nufuzini ta'minlashga, uning samarali faoliyat yuritishi uchun qulay shart-sharoit yaratishga qaratilgan. Mustaqil, xolis, demokratik sud tizimini vujudga keltirish pirovardida inson manfaatlariga, fuqarolarning huquq va erkinliklarini kafolatli muhofaza etishga hamda shu asnoda huquqiy davlatchilik asoslarini shakllantirishga xizmat qiladi.

2 <https://lex.uz/docs/-3432426>



XULOSA VA TAKLIFLAR

Sud–huquqtizimini izchil demokratlashtirish O'zbekistonning huquqiy davlat sifatida rivojlanish strategiyasida markaziy o'rinni egallaydi. Sud hokimiyatining institutsional mustaqilligi mustahkam konstitutsiyaviy kafolatlar, sudyalarning faoliyatining tashqi ta'sirlardan xoli yuritilishi va odil sudlovning qonuniy tamoyillar asosida amalga oshirilishi bilan ta'minlanmoqda. Sudyalarning oliy kengashining tashkil etilishi, sudlar faoliyatining ochiqdoshligi va shaffofligini kuchaytirish, sudlarning tarbiyaviy rolini oshirish, axborot texnologiyalarini keng joriy etish, sudtergov jarayonida inson huquqlarining ishonchli muhofazasini ta'minlashga qaratilgan huquqiy islohotlar demokratik sud tizimining shakllanishiga xizmat qilmoqda.

Sudlarga yuklatilgan vakolatlarning davlat nomidan amalga oshirilishi, sud qarorlarining majburiyligi va sud jarayonlarining protsessual aniqdoshligi huquq ustuvorligini ta'minlashda muhim omil bo'lib qolmoqda. O'zbekiston sud-huquq tizimida hayotga tatbiq etilayotgan chuqur islohotlar jamiyatda adolat, qonuniylik va ishonch muhitini mustahkamlashga, fuqarolarning huquqiy madaniyatini yuksaltirishga hamda davlat hokimiyati tarmoqlari o'rtasida samarali muvozanatni ta'minlashga zamin yaratmoqda. Shu tariqa, demokratik tamoyillarga asoslangan mustaqil sud tizimining rivojlanishi huquqiy davlat qurishning poydevori sifatida mamlakat taraqqiyotiga barqaror hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T., 2018, 42-bet.
2. Mirziyoyev Sh.M. Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir. – T., 2018. – 80 b.
3. R.A. Dahl. On Democracy. – Yale University Press, 1998. – 217 p.
4. T. Ginsburg. Judicial Review in New Democracies. – Cambridge University Press, 2003. – 322 p.
5. M. Tushnet. Weak Courts, Strong Rights. – Princeton University Press, 2008. – 295 p.
6. H. Kelsen. Pure Theory of Law. – University of California Press, 1967. – 356 p.
7. R. Dworkin. Law's Empire. – Harvard University Press, 1986. – 470 p.
8. C. Saunders. The Constitutional System of Australia. – Oxford University Press, 2011. – 420 p.
9. M. Shapiro. Courts: A Comparative and Political Analysis. – University of Chicago Press, 1981. – 254 p.
10. World Justice Project. Rule of Law Index. – Washington, 2023. – 200 p.
11. United Nations. Basic Principles on the Independence of the Judiciary. – New York, 1985. – 28 p.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
